

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

O'n ikkinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi sessiyasida 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan

(O'n ikkinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil 26-fevraldagi o'n beshinchi sessiyasida, birinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 1995-yil 31-oktyabrdagi to'rtinchi va

1997-yil 15-dekabrdagi o'n uchinchi sessiyalarida, 2003-yil 12-noyabrdagi ikkinchi chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasida va 2014 yil 6 iyun o'n beshinchi sessiyasida o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan).

MUQADDIMA

Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib,

hozirgi va keljak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda,

Qoraqalpog'iston davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,

demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,

xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,

respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib,

insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab,

fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida,

o'zining muxtor vakillari siymosida Qoraqalpog'iston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

BIRINCHI BO'LIM
ASOSIY PRINTSIPLAR

I-BOB.

DAVLAT SUVERENITETI

1-modda. Qoraqalpog'iston – O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradigan suveren demokratik respublika. Davlatning "Qoraqalpog'iston Respublikasi" va "Qoraqalpog'iston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

2-modda. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

3-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi, davlat hokimiyyati va boshqaruv organlari tizimini belgilaydi, O'zbekiston Respublikasi siyosatiga mos siyosatni olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari daxlsiz bo'lib, o'zgartirilishi va bo'linishi mumkin emas.

4-modda. Qoraqalpoq tili va o'zbek tili Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat tillaridir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

5-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

6-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti – Nukus shahri.

II BOB.

XALQ HOKIMIYATCHILIGI

7-modda. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

8-modda. Qoraqalpog'iston xududida istiqomat qiladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolarini tashkil etadi.

9-modda. Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

10-modda. Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Jo'qorg'i Kengesi ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi yoki alohida shaxs Qoraqalpog'iston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

11-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsipiga asoslanadi.

12-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

13-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, o'larga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

14-modda. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi.

III BOB.

KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI

15-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

16-modda. Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi Qoraqalpog'iston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

IV BOB.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLISINING XALQARO VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

17-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqaro ilmiy, madaniy va tashqi iqtisodiy aloqalari O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

IKKINCHI BO'LIM

INSON VA FUQARONING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKHLARI VA BURCHLARI

V BOB.

UMUMIY QOIDALAR

18-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yilishi mumkin hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart.

19-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

20-modda. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart.

VI BOB.

FUQAROLIK

21-modda. O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolikning o'rnatilishiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonun bilan belgilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

VII BOB.

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLER

22-modda. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

23-modda. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

24-modda. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligesiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

25-modda. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkora qilishi mumkin emas.

26-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lib, qonunda belgilangan cheklashlardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hududida erkin yurishga, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega.

27-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

28-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

29-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

VIII BOB.

SIYOSIY HUQUQLAR

30-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi

31-modda. Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish va ta'qiqlash huquqiga ega.

32-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kansitishi mumkin emas.

33-modda. Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

IX BOB.

IQTISODIY VA IJTIMOIY HUQUQLAR

34-modda. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

35-modda. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat ta'qilanganadi.

36-modda. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqt va haq to'lana digan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

37-modda. Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

38-modda. Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

39-modda. Har kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

40-modda. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

X BOB.

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

41-modda. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

42-modda. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

43-modda. Voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

44-modda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

XI BOB.

FUQAROLARNING BURCHLARI

45-modda. Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

46-modda. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

47-modda. Fuqarolar Qoraqalpog'iston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

48-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'llishga majburdirlar.

49-modda. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar.

50-modda. O'zbekiston Respublikasini va Qoraqalpog'iston Respublikasini himoya qilish – Qoraqalpog'iston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

UCHINCHI BO'LIM

JAMIYAT VA SHAXS

XII BOB.

JAMIYATNING IQTISODIY NEGIZLARI

51-modda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va

mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

52-modda. Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, unday foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

53-modda. Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

XIII BOB.

JAMOAT BIRLASHMALARI

54-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

55-modda. Konstitutsiyaviy tuzumni kuch zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ta'qiqlanadi.

56-modda. Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

57-modda. Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

58-modda. Siyosiy partiylar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiylar o'z faoliyatlarining moliyaviy ta'minlanish manbalari haqida Jo'qorg'i Kengesga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

59-modda. Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirilar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

60-modda. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini ta'qiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.

XIV BOB.

OILA

61-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

62-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

63-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirilar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

64-modda. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

XV BOB.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

65-modda. Ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Tsenzuraga yo'll qo'yilmaydi.

TO'RTINCHI BO'LIM

MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISH

IX BOB.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

66-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullardan iborat.

67-modda. Tumanlar, shaharlar tashkil qilish va ularni tugatish, shuningdek ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

BESHINCHI BO'LIM

DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

XVII BOB.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING JO'QORG'I KENGESI

68-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

69-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi - hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 65 deputatlardan iborat.

Saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga saylanish huquqiga egadirlar.

Deputatlikka nomzodlar oldiga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

70-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining mutlaq vakolatlari jumlasiga qo'yidagilar kiradi:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlarini sharhlash;
- 3) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisini va uning o'rinnbosarini saylash;
- 5) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumini tuzish;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining taklifiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;
- 7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinnbosarlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi a'zolarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini hamda boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish va tugatish;
- 8) Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasini, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudini, Qoraqalpog'iston Respublikasining jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudini, Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jalik sudini saylash;
- 9) fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman va shahar sudlarining sudyalarini tayinlash va lavozimlaridan ozod qilish;
- 10) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining taqdimiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston

Respublikasining Prokurorini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;

11) Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;

12) xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlarini to'xtatib qo'yish va bekor qilish;

13) ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

14) respublika va mahalliy davlat hokimiyyati organlari tizimini hamda vakilliklarini belgilash;

15) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining taqdimiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat byudjetini va uning ijrosi bo'yicha hisobotlarni tasdiqlash;

16) Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat mukofotlari va faxriy unvonlarini ta'sis etish;

17) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash; Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

18) O'zbekiston Respublikasining oliy davlat hokimiyyati va boshqaruva organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga takliflar kiritish;

19) parlament nazoratini va ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

71-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenegesining faoliyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida va Jo'qorg'i Kengesning Reglamentida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

72-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenegesining yig'ilishi jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirdagina vakolatli hisoblanadi.

73-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenegesi va uning organlari yig'ilishlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi va uning o'rribosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari, boshqa davlat boshqaruv organlarining rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi raislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori ishtirok etishlari mumkin.

74-modda. Vakillik muddati tugagach, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi yangi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining saylovdan keyingi birinchi yig'ilishi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay chaqiriladi.

75-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida qonunchilik tashabbusi huquqiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori egadirlar.

76-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qonunlar, qarorlar va boshqa hujjatlar qabul qiladi. Qonunni qabul qilish uchun Jo'qorg'i Kenges deputatlarining ko'pchilik ovozi talab etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qabul qilgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning matbuotda e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

77-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qonun loyihamini tayyorlash ishlarini olib borish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga havola etiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, qonunlarning va Jo'qorg'i Kengesning boshqa qarorlarining ijrosini nazorat qilib turish uchun deputatlar orasidan qo'mitalar va komissiyalar tuzadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi zarur bo'lgan taqdirda doimiy hamda muvaqqat ishlovchi deputatlik, taftish va boshqa komissiyalarini tuzadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi qo'mitalari va komissiyalarining vakolatlari va ish tartibi qonun bilan belgilanadi.

78-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlariga belgilangan tartibda ularning deputatlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar qoplanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida doimiy ishlaydigan deputatlar o'z vakolatlari davrida boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari va tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

79-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining deputati daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining roziliginiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, hibsga olinishi yoki sud tomonidan beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

XVIII BOB.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI JO'QORG'I KENGESINING RAISI

80-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Rahbari va eng yuqori lavozimli shaxsidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining deputatlari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining vakolati muddatiga saylanadi.

81-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun chiqaruvchi va ijro qiluvchi oliy hokimiyat organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi;
- 2) respublikadagi ishlarning ahvoli haqida va boshqa muhim masalalar yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga ma'ruzalar taqdim etadi;

- 3) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini hayotga tadbiq etishni tashkil qiladi; Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Jo'qorg'i Kenges qarorlari bajarilishining nazorat qilinishini tashkil etadi;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga Jo'qorg'i Kengesi Raisining o'rribosarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges qo'mitalari va komissiyalarining raislarini saylash uchun nomzodlarni taqdim qiladi;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi lavozimiga nomzod tavsiya qiladi;
- 6) Tuman va shahar hokimlarini va ularning o'rribosarlarini, keyinchalik tegishli xalq deputatlari Kengashlarining tasdig'i bilan tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;
- 7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga Jo'qorg'i Kenges Prezidiumi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining raisi va a'zolari lavozimiga nomzodlar taqdim etadi;
- 8) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi raisi va sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi raisi va sudyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi raisi va sudyalari, shuningdek, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman va shahar sudlari sudyalari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;
- 9) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga Jo'qorg'i Kenges Prezidiumi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi lavozimiga nomzod taqdim etadi;
- 10) Jo'qorg'i Kenges muhokamasiga qo'yiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi, Jo'qorg'i Kengesning yig'ilishini chaqiradi, qo'mitalar va komissiyalarning raislari bilan birgalikda uning kun tartibiga kiritiladigan takliflarni shakllantiradi;

- 11) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va uning Prezidiumining ishini tashkil etadi, uning yig'ilishlariga rahbarlik qiladi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va uning Prezidiumi tomonidan qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari va boshqa hujjatlarini imzolaydi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini yo'naltirib va muvofiqlashtirib turadi;
- 12) Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat mukofatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasining faxriy unvonlariga taqdim etadi;
- 13) sudlangan fuqarolarni avf etish haqida masala qo'zg'aydi;
- 14) qonun loyihalarining va davlat hayotidagi boshqa muhim masalalarning umum xalq muhokamasini tashkil qiladi;
- 15) harakatdagi qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi o'z vakolatiga tegishli masalalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining muhokamasiga taqdim etish huquqiga ega.

82-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi o'z vakolatiga tegishli masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

83-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyalarini va qonunlarini buzgan taqdirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan chaqirib olinishi mumkin. Chaqirib olinishi to'g'risidagi qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining xulosasi hisobga olingan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi jami deputatlarining uchdan bir qismi tashabbusi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari umumiylar sonining eng kamida uchdan ikki qismining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi shaxsiy arizasi, shuningdek betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tuzgan tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda, o'z vakolatini to'xtatishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining vakolatini to'xtatish haqidagi qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari umumiylar sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bu holda o'n kun muddat ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi yangi Raisining saylovi o'tkaziladi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI JO'QORG'I KENGESINING PREZIDIUMI

84-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining faoliyatini tashkil qilish va boshqa vakolatlarini amalga oshirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumi tuziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumining tarkibiga Jo'qorg'i Kenges Raisi, uning o'rinosari, Jo'qorg'i Kenges qo'mitalari va komissiyalarining raislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi partiyalar guruhlarining rahbarlari kiradi.

85-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumi:

- 1) Jo'qorg'i Kenges sessiyasining kun tartibi va ish tartibi bo'yicha takliflar tayyorlaydi;
- 2) Jo'qorg'i Kenges qo'mitalari va komissiyalarining amalga oshirayotgan ishlari haqida bildirishlarni hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Jo'qorg'i Kenges qarorlarining bajarilishi bo'yicha axborotlarni tinglaydi;
- 3) qonun loyihalari bo'yicha ishning rejalshtirilishini tashkil etadi;
- 4) Jo'qorg'i Kenges Raisining taklifi bo'yicha qonun loyihalari va boshqa hujjatlarni dastlabki muhokamadan o'tkazadi;
- 5) Jo'qorg'i Kenges sessiyasida deputatlarning kiritgan takliflari va mulohazalarini tahlil qiladi hamda ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul etadi;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mukofatlari bilan mukofatlaydi va Qoraqalpog'iston Respublikasining faxriy unvonlarini beradi;
- 7) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining sessiyalari o'rtasidagi davrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinosarlarini va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining a'zolarini tayinlaydi hamda lavozimlaridan ozod etadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklarini, davlat qo'mitalarini va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzadi hamda tugatadi, keyinchalik mazkur masalalar haqidagi qarorlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining tasdig'iga kiritadi;

- 8) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori lavozimiga nomzod taqdim etadi;
- 9) sessiyalar o'rtasidagi davrda Jo'qorg'i Kenges deputatini qonun bilan belgilangan holda va tartibda javobgarlikka tortish, shuningdek ish beruvchining tashabbusiga ko'ra u bilan mehnat shartnomasini to'xtatishga rozilik beradi;
- 10) Jo'qorg'i Kengesning faoliyatiga va deputatlarning o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishlariga aloqador masalalarni ko'rib chiqadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumi o'z vakolatlariga doir masalalar yuzasidan qarorlar chiqaradi, ular belgilangan tartibda matbuotda e'lon qilinadi.

XX BOB.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHI

86-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi – Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati – Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi organidir.

87-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tuziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining boshqa qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining qarorlari ijrosini ta'minlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat boshqaruv organlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar hokimlarining hujjatlarini to'xtatadi, bekor qiladi.

88-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining taqdimiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Jo'qorg'i Kenges tomonidan tayinlanadigan Rais boshqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi o'z lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi:

- 1) hukumatning faoliyatiga boshchilik qiladi va uning o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi uchun chora-tadbirlar ko'radi;
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, sessiyalar o'rtasidagi davrda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Prezidiumiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinnbosarlarini va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining a'zolarini tayinlash hamda lavozimidan ozod qilish uchun nomzodlar taqdim qiladi;
- 3) Vazirlar Kengashi Raisining o'rinnbosarlarini o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va keyinchalik uni Vazirlar Kengashining Prezidiumida tasdiqlatadi;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, sessiyalar o'rtasidagi davrda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges Prezidiumiga Qoraqalpog'iston Respublikasining vazirliklarini, davlat qo'mitalarini va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish hamda tugatish yuzasidan takliflar kiritadi;
- 5) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisiga tumanlar, shaharlar hokimlarini va ularning o'rinnbosarlarini tayinlash va lavozimlaridan ozod qilish to'g'risida nomzodlarni taqdim etadi;
- 6) Vazirlar Kengashi va uning Prezidiumining majlislariga raislik qiladi;
- 7) Vazirlar Kengashi faoliyatida kollegiallikni ta'minlaydi;
- 8) Vazirlar Kengashi va uning Prezidiumining majlisida ko'rib chiqishni talab etmaydigan davlat hamda xo'jalik boshqaruvining ba'zi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi;
- 9) o'z huquqi doirasida qonun bilan belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

89-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi oldida mas'ul va unga hisob beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi o'z faoliyati haqida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges oldida har yili kamida bir marta hisobot berib turadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yangidan saylangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges oldida o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

90-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining boshqa qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining qarorlari asosida hamda ularni ijro etib, Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha hududida ijro qilinishi shart bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

91-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi vakolatlari, uning ish tartibi, Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa davlat organlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining munosabatlari Qoraqalpog'iston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

XXI BOB.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI

92-modda. Tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'y sununadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

93-modda. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga qo'yidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

94-modda. Mahalliy hokimiyat organlari O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, qarorlarini va farmoyishlarini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining boshqa qarorlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining qarorlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarorlarini va farmoyishlarini hayotga tadbiq etadi, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o'zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari qo'yи organlar ijro etishi uchun majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakillik muddati – besh yil.

95-modda. Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

96-modda. Tuman, shahar hokimlari va ularning o'rinnbosarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining taqdimiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi tomonidan tayinlanadi, lavozimidan ozod qilinadi va xalq deputatlari tegishli Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

97-modda. Tuman va shahar hokimlari o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asoslarida amalga oshiradilar va o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardirlar.

Tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga tuman va shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi, ular bo'yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi.

98-modda. Hokim o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

99-modda. Shaharchalarda, qishloq va ovullarda, shuningdek shaharlarning makon-kengashlarida (mahallalarda) fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

XXII BOB.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SUD HOKIMIYATI

100-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida sud hokimiysi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

101-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman va shahar sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

102-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo'yicha Oliy sudi fuqarolik sudlov ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi hamda fuqarolik ishlar bo'yicha tumanlararo sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

103-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliv organi hisoblanadi hamda jinoiy ishlar bo'yicha tuman shahar sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

104-modda. Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jalik sudi tomonidan uning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

105-modda. Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovnvi amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkin.

106-modda. Hamma sndlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi.

107-modda. Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

108-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida sud ishlarini yuritish qoraqalpoq tilida, o'zbek tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

109-modda. Ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta'minlanadi.

Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi

qonun bilan belgilanadi.

XXIII BOB.

SAYLOV TIZIMI

110-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga saylovnvi va Qoraqalpog'iston Respublikasi referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan faoliyatining asosiy printsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoraliq va adolatlilikdan iborat bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi va o'z faoliyatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasining saylov to'g'risidagi hamda referendum to'g'risidagi qonunlariga va boshqa qonunlarga amal qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a'zolari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining tavsiyasi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari orasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining taqdimi bo'yicha komissiya majlisida saylanadi.

XXIV BOB.

KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT

111-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasida Konstitutsiyaviy nazoratni Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshiradi.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi, uning o'rribbosari hamda qo'mitaning a'zolari tarkibida saylanadi.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shaxslarning vakolat muddati - besh yil.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisining, rais o'rribbosarining va a'zolarining o'z vazifalarini deputatlik mandati bilan birga qo'shib olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shaxslar bir vaqtning o'zida hujjatlari qo'mita nazoratida bo'lgan organlar tarkibiga kira olmaydi.

112-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi topshirig'i bilan unga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida ko'rib chiqishga taqdim qilinayotgan Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari loyihalari va boshqa hujjatlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlarining kamida beshdan birining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining takliflari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan qabul qilingan qonunlarning va boshqa hujjatlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi xulosani Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga taqdim etadi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining topshirig'iga binoan unga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumi qarorlarining va Jo'qorg'i

Kenges Raisi farmoyishlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga hamda qonunlariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasini taqdim etadi;

4) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining topshirig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlarining kamida beshdan birining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining takliflari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qaror va farmoyishlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga hamda qonunlariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga taqdim etadi.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi o'z tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi oliv davlat hokimiyati va boshqarish organlari hujjatlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasini taqdim etishga haqlidir.

Qo'mitaning xulosasi faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining barcha deputatlarining uchdan ikki ovozi bilan qabul etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining qaroriga binoan bekor qilinishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasini tashkil etish va uning ish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat to'g'risidagi qonuni bilan belgilanadi.

XXV BOB.

PROKURATURA

113-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

114-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

Tuman va shahar prokurorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining taklifiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, tumanlar va shaharlar prokurorlarining vakolat muddati – besh yil.

115-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuratura organlari o'z davlat vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil

holda, faqat qonunga bo'ysunub amalga oshiradilar.

Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

116-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi.

Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin.

XXVI BOB.

MOLIYa VA BYuDJET

117-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti respublika va mahalliy byudjetlardan iborat.

118-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjetining daromad va xarajatlarini respublika hamda mahalliy byudjetlarga taqsimlash Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

OLTINCHI BO'LIM

KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISH

KIRITISH TARTIBI

119-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismidan ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar va Qoraqalpog'iston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi.

120-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qonunni tegishli taklif bo'lganidan keyin olti oy mobaynida qabul qilishga haqli. Agar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.